

## O‘ZBOSHIMCHALIK BILAN IMORAT QURISH VA UNING OQIBATLARI

**Qadambayeva Ozoda Umid qizi**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Yurisprudensiya: biznes huquqi 3-bosqich talabasi

E-mail: [qadamboyevaozoda2@gmail.com](mailto:qadamboyevaozoda2@gmail.com)

Ilmiy rahbar: ю.ф.д., professor **Topildiyev Vohidjon Raximjonovich**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zboshimchalik bilan qurilgan imorat tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, o‘zboshimchalik bilan imorat qurish natijasida kelib chiqadigan oqibatlar, o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratga nisbatan mulk huquqi e’tirof etilishi mumkin bo‘lmagan holatlar tahlil qilingan. Shuningdek, bu borada xorijiy mamlakatlar qonunchiligi tahlil qilinib, ahamiyatli jihatlari o‘rganilgan hamda o‘zboshimchalik bilan qurilishlarning oldini olish uchun taklif va tavsiyalar keltirilgan. Ushbu maqolaning dolzarbligini bino va imoratlarni qonunga zid ravishda qurish, ulardan foydalanish natijasida yuzaga keladigan muammoli holatlar, noqonuniy qurilishlarning atrof-muhit, inson salomatligiga salbiy ta’sirlarining batafsil yoritilganligidir.

**Kirish so‘zlar:** o‘zboshimchalik, imorat, noqonuniy qurilishlar, yer uchastkasi, mulk huquqi, davlat, jamoatchilik nazorati, huquqiy va institutsional chora-tadbirlar, javobgarlik masalasi

## ARBITRARY CONSTRUCTIONS AND ITS CONSEQUENCES

**Qadambayeva Ozoda Umid qizi**

3rd year student of Jurisprudence: business law  
of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

E-mail: [qadamboyevaozoda2@gmail.com](mailto:qadamboyevaozoda2@gmail.com)

Scientific supervisor: Doctor of Law, Professor Topildiyev Vohidjon  
Rakhimjonovich

**Annotation:** This article analyzes the concept of an illegally constructed building, its essence, the consequences arising from the construction of an illegally

constructed building, the cases in which ownership rights cannot be recognized in relation to an illegally constructed building. Also, the legislation of foreign countries in this regard is analyzed, its significant aspects are studied, and proposals and recommendations are presented for the prevention of illegal construction. The relevance of this article is that it provides a detailed description of the problematic situations arising from the illegal construction and use of buildings and structures, and the negative impact of illegal construction on the environment and human health.

**Keywords:** Arbitrariness, building, illegal constructions, land plot, property rights, state, public control, legal and institutional measures, issue of responsibility

## САМОВОЛЬНОЕ СТРОИТЕЛЬСТВО И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЯ

**Кадамбаева Озода Умид қизи**

Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Юриспруденция: студент 3 курса коммерческое права.

Электронная почта: [qadamboevaaozoda2@gmail.com](mailto:qadamboevaaozoda2@gmail.com)

Научный руководитель: д.ю.н., профессор Топилдиев Вохиджон  
Рахимжонович

**Аннотация:** В данной статье анализируются понятие самовольно возведённого строения, его сущность, последствия, возникающие при строительстве самовольно возведённого строения, случаи, при которых право собственности на самовольно возведённое строение не может быть признано. Также анализируется законодательство зарубежных стран в данной области, изучаются его существенные аспекты, а также представляются предложения и рекомендации по предупреждению самовольного строительства. Актуальность данной статьи заключается в том, что в ней подробно описаны проблемные ситуации, возникающие при самовольном строительстве и эксплуатации зданий и сооружений, а также негативное влияние самовольного строительства на окружающую среду и здоровье человека.

**Ключевые слова:** Самоуправство, строительство, незаконные постройки, земельный участок, право собственности, государственный,



общественный контроль, правовые и институциональные меры, вопрос ответственности

## KIRISH

O‘zboshimchalik bilan imorat qurish masalasi dolzarb mavzulardan biri bo‘lib, bu ko‘p mamlakatlarda, shu jumladan O‘zbekiston sharoitida ham muhim ahamiyatga ega. Ko‘p hollarda noqonuniy qurilishlar rejalashtirilmagan hududlarda amalga oshiriladi, bu esa shahar infratuzilmasiga salbiy ta‘sir qiladi. Rejasiz qurilgan imoratlar yo‘l, suv ta‘minoti, kanalizatsiya tizimlari va boshqa infratuzilma bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi. Natijada, nafaqat noqonuniy imorat egalari, balki ularning atrofidagi aholiga ham zarar yetadi. O‘zboshimchalik bilan imorat qurish masalasi jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy muammolar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning dolzarbligi bir necha asosiy jihatlar orqali namoyon bo‘ladi.

Avvalo, bu muammo shaharsozlik va yer resurslarini boshqarishning zamonaviy talablariga mos kelmasligi bilan izohlanadi. Odamlar ko‘pincha iqtisodiy yoki vaqt cheklovlari tufayli huquqiy me‘yorlarni chetlab o‘tib, ruxsatsiz qurilishlarga murojaat qilishadi. Bu nafaqat individual darajadagi noqulayliklarni, balki butun shahar va qishloq infratuzilmasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, noqonuniy qurilgan binolar odatda suv, elektr, gaz yoki yo‘l infratuzilmasi bilan ta‘minlanmagan bo‘ladi. Natijada, nafaqat bunday qurilish egalari, balki qo‘shni hududlarda yashovchi aholi ham azob chekadi.

Bunday qurilishlarning dolzarbligini yanada oshiruvchi jihat – bu ularning ko‘p hollarda xavfsizlik talablariga javob bermasligidir. Ko‘plab noqonuniy imoratlar texnik standartlar va shaharsozlik me‘yorlariga amal qilinmagan holda quriladi. Bu esa tabiiy ofatlar paytida (masalan, zilzila yoki kuchli yomg‘irlar) jiddiy xavf tug‘diradi. Bundan tashqari, o‘zboshimchalik bilan qurilish ijtimoiy muammolarga ham sabab bo‘ladi. Ko‘pincha yer va mulk bo‘yicha huquqiy nizolar yuzaga keladi. Masalan, noqonuniy imoratlar atrofidagi yer uchastkalari egalari bilan mojarolar kelib chiqadi. Shu bilan birga, davlat organlari noqonuniy qurilishlarni nazorat qilish va ularni qonuniylashtirish bo‘yicha katta miqdorda resurs sarflaydi. Noqonuniy qurilishlar ko‘pincha tabiiy muhofaza zonalarida, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda yoki ekologik xavfli hududlarda amalga



oshiriladi. Bu holat yerning unumdorligini pasaytiradi, tabiiy resurslarni isrof qiladi va ekologik muvozanatni buzadi.

Mazkur masalaning dolzarbligini huquqiy nuqtai nazardan ham ko‘rish lozim. So‘nggi yillarda davlat noqonuniy qurilishlarni qonuniylashtirish va shaharsozlik me‘yorlarini takomillashtirishga harakat qilmoqda. Ammo aholi o‘rtasida huquqiy madaniyat yetarlicha shakllanmaganligi va ruxsat olish jarayonining murakkabligi ushbu muammoning hal qilinishini qiyinlashtirmoqda.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Ishda mantiqiy, qiyosiy-huquqiy, ilmiy manbalarni aniq tadqiq qilish, qonun hujjatlarini sharhlash, qonunni qo‘llash amaliyotini o‘rganish kabi usullardan foydalanilgan. Shu bilan birga, o‘zboshimchalik bilan imorat qurish masalasiga oid Hindiston, Xitoy, AQSH, Braziliya, Turkiya davlatlari qonun hujjatlari va milliy qonunchiligimiz qiyosiy-huquqiy tahlil qilinadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 212-moddasiga ko‘ra qonunchilikda belgilangan tartibda qurilish maqsadlari uchun ajratilmagan yer uchastkalarida, shuningdek imorat qurish uchun zarur ruxsatnoma olmasdan yoki arxitektura va qurilish normalari hamda qoidalarini jiddiy buzgan holda qurilgan uy-joy, boshqa bino, inshoot yoki o‘zga ko‘chmas mulk o‘zboshimchalik bilan qurilgan imorat hisoblanadi.

O‘zboshimchalik bilan imorat qurgan shaxs unga mulk huquqini ololmaydi. Bu shaxs qurgan imoratini tasarruf etishga — sotishga, hadya etishga, ijaraga berishga, imoratga nisbatan boshqa bitimlar tuzishga haqli emas.

O‘zboshimchalik bilan imorat qurish natijasida huquqlari buzilgan shaxsning yoki tegishli davlat organining da‘vosi bilan bunday imorat sudning qaroriga binoan imoratni qurgan shaxs tomonidan yoki uning hisobidan buzib tashlanishi lozim.

Imorat qurilgan yer uchastkasining mulkdori bo‘lgan, unga umrbod meros sifatida egalik qilayotgan, doimiy egalik qilayotgan va foydalanayotgan shaxsning o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratga nisbatan mulk huquqi sud tomonidan e‘tirof etilishi mumkin. Bu holda imoratga nisbatan mulk huquqi e‘tirof etilgan shaxs imorat qurgan shaxsning xarajatlarini sud belgilagan miqdorda qoplaydi.

Basharti, o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratning saqlab qolinishi boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari buzilishiga sabab



bo‘lsa, yoxud fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘dirsa, o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratga nisbatan mulk huquqi e‘tirof etilishi mumkin emas[1].

Shunday qilib, turar joy binosi ham, har qanday boshqa turdagi ko‘chmas mulk va boshqa xil imorat ham o‘zboshimchalik bilan qurilgan imorat deb tan olinadi. Agarda u:

qonunchilikda hamda boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibga muvofiq maqsadlar uchun ajratib berilmagan yer uchastkasida qurilgan bo‘lsa;

buning uchun zarur bo‘lgan ruxsatnomalarni olmay qurilgan bo‘lsa;

shaharsozlik va qurilish me‘yorlarini va qoidalarini jiddiy ravishda buzgan holda qurilgan bo‘lsa.

Bino, imorat va boshqa turdagi ko‘chmas mulk ko‘rsatilgan uchala belgilardan bittasi mavjud bo‘lganda o‘zboshimchalik bilan qurilgan imorat deb tan olinishini inobatga olish lozim.

O‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratning qurilishi quruvchi shaxs uchun bir qator salbiy moddiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Birinchidan, o‘zboshimcha qurilishni amalga oshirgan shaxs, unga mulk huquqini qo‘lga kiritmaydi va qurilgan imoratni tasarruf etishga ya‘ni unga doir har qanday bitimlarni tuzishga haqli emas. O‘zboshimcha qurilgan imoratlar bilan tuziladigan bitimlar o‘z-o‘zidan haqiqiy emas. Mazmunan, mazkur imorat, qonunning imperativ ko‘rsatmasiga binoan, shu jumladan, tugatilmagan qurilish obyekti sifatida ham fuqarolik muomalasidan chiqarilgan va davlat ro‘yxatiga olinmaydi. Ikkinchidan, sud qaroriga binoan, o‘zboshimcha qurilishni amalga oshirgan shaxs qurilmani buzishi yoki uni buzish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplashi kerak. Noqonuniy ravishda qurilish bajarilgan yer uchastkasining mulkdori yoki shaharsozlik va me‘morchilik sohasidagi nazoratni amalga oshirayotgan vakolatli davlat organi tegishli talab bilan sudga murojaat qilishi mumkin. O‘zboshimcha qurilishni va qurilmaning buzilishini amalga oshirgan shaxs foydalanilgan materiallarga mulk huquqini saqlab qoladi.

O‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratga mulk huquqining tan olinishi to‘g‘risidagi qonuniy kuchga kirgan sud qarorlari ko‘chmas mulkka mavjud huquqlarni davlat ro‘yxatiga olinishi uchun asos bo‘ladi. Shu bilan birga, o‘zboshimcha qurilgan imoratga mavjud mulk huquqi sud tomonidan faqat maskur qurilmaning saqlanishi o‘zga shaxslarning huquqlarini va qonun tomonidan himoyalangan manfaatlarining buzilmasligi, odamlarning hayotiga va salomatligiga xavf tug‘dirilmasligi shartida tan olinishi mumkin.



“O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqni e‘tirof etish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 13-moddasiga ko‘ra O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalarini hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarni bosqichma-bosqich xatlovdan o‘tkazish har yilgi reja-jadval asosida amalga oshiriladi.

Reja-jadval Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining taklifiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi tomonidan tasdiqlanadi va jamoatchilikka e‘lon qilinadi. O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga taalluqli ma‘lumotlarni va hujjatlarni kelishish Kadastr agentligining avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali amalga oshiriladi [2].

O‘zboshimchalik bilan imorat qurish muammosi ko‘plab mamlakatlarda uchrab, ularning har biri ushbu masalaga turli yondashuvlarni ishlab chiqqan. Quyida bir nechta davlatlarning tajribasi va bu boradagi chora-tadbirlari keltiriladi:

Hindistonda urbanizatsiya jarayoni juda tez sur‘atlarda kechayotgani sababli noqonuniy qurilishlar keng tarqalgan. Chora-tadbirlar: Hukumat noqonuniy qurilishlarni qonuniylashtirish bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqqan, masalan, “Delhi Master Plan” doirasida ayrim noqonuniy imoratlar qonuniylashtirilgan. Nazorat va jazolar: Maxsus qurilish inspeksiya tashkil etilgan, noqonuniy qurilish uchun jiddiy jarimalar va buzish amaliyoti qo‘llaniladi.

Xitoyda noqonuniy qurilishlarning oldini olish uchun qat‘iy shaharsozlik nazorati o‘rnatilgan. Xitoyda yer resurslari qat‘iy nazorat qilinadi va faqat hukumat ruxsati bilan foydalaniladi. Noqonuniy qurilishlar darhol buziladi. Shaharsozlik rejalarini sun‘iy intellekt va geografik axborot tizimlari orqali monitoring qilinadi.

Turkiyada noqonuniy qurilishlar ko‘pincha zilzila xavfi yuqori hududlarda uchraydi. Hukumat noqonuniy binolarni qonuniylashtirish uchun “Imar Barışı” dasturini joriy qilgan. Bu dastur orqali aholi ma‘lum miqdorda to‘lov evaziga binolarini qonuniylashtirishi mumkin. Noqonuniy va xavfsiz bo‘lmagan imoratlar buziladi yoki qayta quriladi.

Braziliyada hukumat noqonuniy hududlarni ijtimoiy infratuzilmaga qo‘shish uchun maxsus dasturlarni amalga oshiradi. Ayrim noqonuniy hududlarga asosiy xizmatlar (suv, elektr) yetkazib berilib, yashash sharoitlari yaxshilanadi.



AQShda noqonuniy qurilishlar asosan kichik shahar va qishloq joylarida uchraydi. Har bir shtatda o‘zining shaharsozlik kodeksi mavjud bo‘lib, noqonuniy qurilishlar qat’iy nazorat qilinadi. Noqonuniy qurilish uchun katta miqdorda jarima va ruxsatnomasiz qurilgan binolarni sotish yoki ijaraga berish taqiqlanadi.

Xorij tajribasi shuni ko‘rsatadiki, o‘zboshimchalik bilan qurilishlarning oldini olish uchun:

1. Qurilish ruxsatnomasini olish jarayonini soddalashtirish.
2. Noqonuniy qurilishlarni monitoring qilish uchun texnologiyalardan foydalanish.
3. Ayrim holatlarda noqonuniy qurilishlarni qonuniylashtirish orqali aholi bilan ijtimoiy kelishuvga erishish.
4. Xavfsiz bo‘lmagan binolarni buzish yoki rekonstruksiya qilish kabi chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston ushbu tajribalardan foydalanib, o‘zboshimchalik bilan qurilishlarni kamaytirish va boshqarishda samarali tizimlarni joriy qilishi mumkin.

O‘zboshimchalik bilan imorat qurish masalasini hal qilish uchun taklif va tavsiyalar sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1. Qonuniylashtirish jarayoni: Oldin qurilgan va qonunchilik talablariga qisman mos keladigan bino-inshootlarni qonuniylashtirish uchun soddalashtirilgan mexanizm joriy etilishi kerak.

2. Tahlil va ekspertiza: Qurilishdan oldin har bir loyiha atroflicha o‘rganilib, texnik, ekologik va iqtisodiy jihatdan baholanishi kerak.

3. Ma’rifiy va targ‘ibot ishlari: Qurilish me’yorlariga rioya qilishning muhimligini targ‘ib qilish uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalanish lozim. Fuqarolarga o‘zboshimchalik bilan qurilishning huquqiy oqibatlarini va zararlarini tushuntiradigan dasturlar tashkil etilishi kerak.

Barqaror qurilish usullarini targ‘ib qilish: Qurilishda ekologik toza materiallardan foydalanish va yashil hududlarni saqlab qolish bo‘yicha qoidalarni ishlab chiqish zarur. Qurilish materiallari va texnologiyalarning ekologik xavfsizligi qat’iy nazorat qilinishi kerak.

Jarimalarni oshirish: O‘zboshimchalik bilan qurilishlar uchun ogohlantirish, jarima va boshqa jazolarni oshirish orqali profilaktika choralari ko‘rilishi lozim. Hozirgi vaqtda amalda bo‘lgan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 60-moddasiga muvofiq: Yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallab olish, shu

jumladan ushbu yer uchastkalariga nisbatan qonuniy huquqlari mavjud bo‘lmagan holda ulardan foydalanish, — fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravari, mansabdor shaxslarga esa — yetmish baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi. O‘zboshimchalik bilan egallab olingan, ajratilgan yer uchastkasiga tutash bo‘lgan va tutash bo‘lmagan yer uchastkalarida qurilish ishlarini amalga oshirish, — fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravari, mansabdor shaxslarga esa — to‘rt yuz baravari miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi[3]. Shuningdek, Jinoyat kodeksimizning 229(1)-moddasiga ko‘ra: Yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallab olish, shu jumladan ushbu yer uchastkalariga nisbatan qonuniy huquqlari mavjud bo‘lmagan holda ulardan foydalanish, xuddi shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, — bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Sug‘oriladigan yer uchastkalarini ularda qurilish ishlarini amalga oshirgan holda o‘zboshimchalik bilan egallab olish, — bazaviy hisoblash miqdorining to‘rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi[4].

Taklif va tavsiyalarni amalga oshirish orqali o‘zboshimchalik bilan qurilishlar oqibatida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish, jamiyatda huquqiy, iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta‘minlash mumkin. Shu bilan birga, bu choralar shaharsozlik va hududiy rivojlanish jarayonlarini samarali boshqarishga yordam beradi.

## XULOSA

Bugungi kunda urbanizatsiya va aholining o‘sishi bilan yerga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Bu jarayonda o‘zboshimchalik bilan qurilishlar jamiyatni har tomonlama rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayni paytda davlat ushbu muammoga yechim topish uchun huquqiy va institutsional chora-tadbirlarni ko‘rayotgan bo‘lsa-da, muammo ildizini bartaraf etish uchun: qonunchilikni takomillashtirish, nazorat tizimini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish, shahar va qishloqni rejalashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zarur. Shaharsozlikka oid barqaror rivojlanishni ta‘minlash, davlat mulkini himoya qilish va jamiyat manfaatlarini



muhofaza qilish uchun qonuniy mexanizmlar samarali ishlashi shart. Bu esa davlat va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (birinchi qism) 21.12.1995. <https://lex.uz/docs/-111189>
2. O'zbekiston Respublikasining qonuni -937-son 05.08.2024. O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida <https://lex.uz/uz/docs/-7049383>
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 22.09.1994 йил. <https://lex.uz/docs/-97664>
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 22.09.1994 йил. <https://lex.uz/docs/-111453>
5. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. 1-jild (birinchi qism) Adliya vazirligi. T.: “Vektor-Press”, 2010.- 816 b. - (Professional (malakali) sharhlar).
6. Топилдиев В.Р., Рим ҳуқуқи. Дарслик;. –Т.: Янги аср авлоди, 2013. - 259 б.
7. Топилдиев В.Р. Фуқаролик ҳуқуқи. Дарслик. –Т., «Ҳудуд адабиётлар publish» 2022. –Б. 590.
8. Топилдиев В.Р. Замонавий технологияларни фуқаролик-ҳуқуқий фанларнинг ривожланиши ва фуқаролик ҳуқуқий муносабатларга таъсири // “Фуқаролик ҳуқуқий фанларини ривожлантириш тенденциялари ва фуқаролик қонunchiligini takomillashtirish istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Т., 2022. 47-62 бетлар.
9. Топилдиев В.Р. История гражданского права в Узбекистане и этапы его развития. Вопросы российского и международного права. –Москва: 2019. Том 9. № 10А. Импакт-фактор РИНЦ. –С.159-167.

